


2022- yilning yanvar-martida Surxondaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-martida Surxondaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 5 374,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 4,6 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 111,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Surxondaryo viloyatining qo'shgan hissasi 3,3 % ga yetdi.




**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
I. YAHM, jami	4 613,0	5 374,9	104,6
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	4 444,2	5 181,9	104,4
mahsulotlarga sof soliqlar	168,8	193,0	108,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	4 444,2	5 181,9	104,4
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 247,4	1 433,0	103,7
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	828,3	947,6	105,5
sanoat	360,5	389,4	103,8
qurilish	467,8	558,2	106,8
xizmatlar	2 368,5	2 801,3	104,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	537,4	652,7	108,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	275,7	324,3	113,0
boshqa xizmat tarmoqlari	1 555,4	1 824,3	101,5

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 1954,2 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 % ga yuqoridir.

2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o‘shish sur‘atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,6 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 27,7 % ni, sanoat tarmog‘i 7,5 % ni, qurilish 10,8 % ni va xizmatlar sohasi 54,0 % ni tashkil qildi.

**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

	2021- yil	2022- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,3	96,4
mahsulotlarga sof soliqlar	3,7	3,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	28,1	27,7
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	18,6	18,3
sanoat	8,1	7,5
qurilish	10,5	10,8
xizmatlar	53,3	54,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	12,1	12,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,2	6,3
boshqa xizmat tarmoqlari	35,0	35,1

2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,7 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 27,7 %), sanoatda – 103,8 % (7,5 %), qurilishda – 106,8 % (10,8 %), xizmatlar sohasida – 104,5 % ni (54,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 108,8 % (12,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 113,0 % (6,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,5 % dan (35,1 %) iborat bo'ldi.

2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,0 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 1,2 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,3 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 0,8 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,7 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 1,0 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 2,3 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 1,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.

2022- yilning yanvar-martida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-martida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 111,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida 113,2 % va qurilish tarmog'ida – 111,7 % qayd etildi.

2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 68,6 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-martida – 68,9 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

2021- yil

68,9 %

2022- yil

68,6 %